

FANDA YARATILGAN INNOVATSIYALAR, TAJRIBA VA YUTUQ

Shamsiyeva Umida Abduhalil qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti.

Annotation: Innovation in science is the process of introducing highly novel and useful elements of investigation into a scientific community. Innovations in Science is intended for news, more comfortable life and putting ideas into action. In current days scientist surfe into the field of innovations attracting students and clever people to a wide variety of scientific fields such as physics, molecular biology, chemistry, biochemistry, astronomy, engineering, neuroscience, immunology, psychology, and earth science. Loads of experience through hardship and learning or exploring life has brought to success in creation of innovations in science. And today we all are utilizing some sort of innovations has been made so far. In this article, path of created innovations, general conception about that sphere will be submitted as well as experience and gained success will be discussed.

Keywords: Scientific innovation, elements, as physics, molecular biology, chemistry, biochemistry, astronomy, engineering, neuroscience, immunology, psychology, and earth science.

Аннотация: Инновации в науке – это процесс внедрения в научное сообщество новых и полезных элементов исследования. Инновации в науке предназначены для новостей, более комфортной жизни и воплощения идей в жизнь. В наши дни ученые активно занимаются инновациями, привлекая студентов и умных людей в самые разные научные области, такие как физика, молекулярная биология, химия, биохимия, астрономия, инженерия, нейробиология, иммунология, психология и науки о Земле. Богатый опыт, полученный в трудностях, в обучении или исследовании жизни, привел к успеху в создании инноваций в науке. И сегодня мы все используем какие-то инновации, которые были сделаны до сих пор. В данной статье будет представлен путь создаваемых инноваций, общая концепция этой сферы, а также рассмотрен опыт и достигнутые успехи.

Ключевые слова: Научная инновация, элементы, такие как физика, молекулярная биология, химия, биохимия, астрономия, инженерия, нейронаука, иммунология, психология, науки о Земле.

Annotatsiya: Ilm-fan sohasida innovatsiya - bu ilmiy jamoatchilikni tekshirishning yuqori darajadagi yangi va foydali ahamiyatlarini taqdim etish jarayonidir. Bu soha Ilm-fanda yangiliklar, yanada qulay hayot va g'oyalarni hayotga joriy etishga mo'ljallangan. Hozirgi kunda fizika, molekulyar biologiya, kimyo, biokimyo, astronomiya, muhandislik, nevrologiya, immunologiya, psixologiya va yershunoslik kabi turli xil ilmiy yo'nalishlarga talabalar va aqlli odamlarni jalb qilish orqali ularni bu sohaga qiziqtirib, u bilan shug'ullanishga erishishmqda. Qiyinchiliklar va o'qib-o'rganishlar yoki hayotni tadqiq qilish orqali ilm-fan sohasida yangiliklar yaratishda va tajriba orttirishga erishildi. Bugun esa hammamiz shu paytgacha yaratilgan bir qancha innovatsiyalardan foydalanyapmiz. Ushbu maqolada, yaratilgan yangiliklar yo'li, ushbu soha haqida umumiy tushuncha taqdim etiladi, shuningdek tajriba va yutuqlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: fandagi innovatsiyalar, elementlar, fizika, molekulyar biologiya, kimyo, biokimyo, astronomiya, muhandislik, nevrologiya, immunologiya, psixologiya.

Tadqiqot obyektini va qo'llanilgan metodlar:

Tadqiqotning obyektini sifatida dunyoda tan olingan va foydalanilib kelinyotgan bilim va tadqiqot, ularning foydali tomonlari va bugungi kundagi ahamiyati yoritib beriladi. Tadqiqot mavzusini yoritishda taqqoslash, misol keltirish, dalillash ka'bi uslublardan foydalanilgan

Olingan natijalar va ularning tahlili:

Bugungi kunda hayotimizni innovatsiyalarsiz tasavvur qila olmaymiz. Butun jahon xalqlari yangi g'oyalar va ularning amaliy ko'rinishlariga tayangan holda oson va qulay hayotga erishib keloqdalar. Izlanishlarim davomida shuni sezdimku innovatsiya qanchalik eski va uzoq muddatdan beri foydalanilib kelinyotgan bo'lishiga qaramay hanuz insonlar orasida e'tirof qilinib boraveriladi. Ular olimlarga, yangilik yaratuvchilarga yorqin namuna vazifasini bajaradilar, bundan tashqari kishilar masafadan turib ham o'z tajribalarini bo'lishishlari, o'rganishlari mumkin. Innovatsiyalardan kelgan yutuqlarga keladigan bo'lsak, bugungi kundagi vaqtimizni tejashga yordam beruvchi qulayliklar, jismoniy mehnatni osonlashtiradigan yangiliklarning son sanog'i yo'q.

Bugunda yurtimizda ham bu sohaga katta e'tibor qaratilmoqda va yoshlarga imkoniyatlar eshigi keng ochib berilmoqda. Yurtboshimizning shaxsan o'zlari bu haqida alohida nutq so'zlab vazirliklarga topshiriqlar va ko'rsatmalar berganlar. shu kungacha ko'rilgan kamchiliklarga barham berishga kirishganlar.

G'oyalar amalga oshadi!

Oxirgi 3-4 yil ichida yoshlarimiz uchun keng imkoniyatlar eshigi ochildi. Bu mubolag'a emas, aksincha, shu kunlarni orzu qilgan bir yigit tilidan chiqayotgan shukronalik so'zlari, xolos. Axir, qachon o'z g'oyasi, loyihasiga ega yigit-qizlar vazirlik darajasida qo'llab-quvvatlangan, ular uchun turli tanlovlar tashkil etilgan? Bugun bu ishlar odatiy holga aylandi. Yoshlar "Start-up", "TexnoWays" singari yirik texnologik rivojlanish marafonlarida o'z iqtidor va imkoniyatlarini namoyon etyapti. Grantlar g'olibiga aylanib, ishlanmalarini foydali qurilmalarga aylantiryapti...

Ana shunday yigit-qizlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida Innovatsion rivojlanish vazirligi qoshida birinchilardan bo'lib "Yoshlar akademiyasi" tashkil etildi. Tuzilma qisqa vaqtda innovatsion loyihalar va g'oyalarga ega iqtidorli yoshlar, talabalar hamda 40 yoshgacha bo'lgan olimlar va tadbirkorlarni birlashtiradigan, ularni har tomonlama rag'batlantiradigan maydonga aylandi.

Akademiyaga o'z jamoasi, ilmiy ishlanmasi, g'oya yoki startap loyihalariga ega 40 yoshgacha bo'lgan yigit-qizlar qabul qilinadi. Yosh ixtirochilar bu yerda "G'oyalar generatorlari", "Startaplar", "Biznes vakillari" hamda "Bo'lajak akademiklar" kabi 4 ta platformadan birida faoliyat yuritishi mumkin.

Ayni paytda Yoshlar akademiyasining 2 mingga yaqin a'zosi bor. Ular geologiya, matematika, fizika, qishloq xo'jaligi, kimyo sanoati, sog'liqni saqlash, ta'lim, sun'iy intellekt, robototexnika va mexatronika, dasturlash, 3D modellashtirish va boshqa yo'nalishlarda o'z loyihalarini amalga oshirib kelmoqda. A'zolar orasida innovatsion va amaliy ishlanmalarini hayotga tatbiq etib, muayyan soha rivojiga hissa qo'shayotgan faol va tashabbuskor jamoalar ko'pchilikni tashkil etadi.

Bugun ular tomonidan ishlab chiqilgan ko'plab loyihalar hayotimizga keng joriy etilmoqda. Xususan, ayni paytda turli sohalarda foydalanilayotgan, tug'ma qo'lsiz va hayoti davomida qo'li amputatsiyaga uchragan nogironlar uchun bionik protezlar, o'pkani sun'iy shamollatish apparatlari uchun maxsus oksigenatsiya niqoblari, kiyimlar, bolalar o'yinchoqlari va boshqa uy-ro'zg'or buyumlaridagi bakteriya va hidlarni bartaraf etishga mo'ljallangan "CleanBox" qurilmasi,

avtomobillar xavfsizligini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan "Carwon smart security system" mobil ilovasi, maishiy chiqindilar asosida sun'iy uglerodlashtirilgan material olish qurilmasi, rangli metall buyumlar quyish uchun vakuum asosida ishlaydigan "Humo S1" uskunasi, "Sky project" virtual parashyut simulyatori va boshqa bir qancha ixtirolar o'zbek yigit-qizlari, xususan, "Yoshlar akademiyasi" a'zolari tomonidan yaratilgani bizni quvontiradi.

Zamonaviy sharoitlarda innovatsiyalardan foydalanish iqtisodiy o'sishni ta'minlagan holda, bir tomondan davlatning rivojlanishida bosh omil bo'lsa, ikkinchi tomondan ilmiy-texnik rivojlanishning natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Innovatsion iqtisodiyotning asosi innovatsion faoliyat bo'lib, o'ziga xos iqtisodiyot turi sifatida bilimlarni, innovatsion omillarni va texnologiyalarni yangilash orqali iqtisodiy tizimning rivojlanishini ta'minlaydi. Mamlakatda innovatsion siyosatni shakllantirishda ilg'or mamlakatlarning bu yo'nalishdagi tajribalarini joriy qilish ulardan yana samarali va unumli foydalanish imkoniyatlarini yaratadi.

Barcha zamonlarning eng buyuk ilmiy kashfiyotlari qaysilar? Genom tahrirlash. ... CRISPR (kumeli muntazam ravishda interspaced Qisqa Palindrom takrorlanadi) ... RNK-sekretsia. ... DNKning molekulyar tuzilishi. ..._Elektr energiyasy. ... Og'riq qoldiruvchi va anesteziya. ... Vaktsinalar. ... Bizning jamoaviy ish qobiliyatimiz

Xulosa

Har qanday yangilik va yangi fikr -g'oyaga jiddiy e'tibor bilan qarashiiz va yangilik yaratish ehtimoli bo'lgan insonlarga qulaylik yaratshib ,imkoniyatlar taqdim etishimiz kelajagimizning go`zal va qulay bo`lishini ta`minlashi mumkinligini anglashimiz zarur. Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki innovatsiyalarning chegarasi yo`q ,bundan yaxshirog`ini yaratishning iloji yo`q degan so`zni unutib yangiliklarga bag`rimizni ochishimiz ,doimo yangilikka intilib yashashimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Djafarova, Dildora, Yaxshiboyeva Nodira, and Abdullayeva Zulfiya. "Socio-Cultural Memory and Its Reflection in French Phraseology." *Journal of Positive School Psychology* (2022): 2883-2889.
2. Yaxshiboyeva, Nodira. "Reconstruction of coloristic expressions in erkin azam's" noise" and" pakana's love"." Конференции. 2021.
3. Ilhomovna, Djafarova Dildora, and Bobokalonov Odilshoh Ostonovich. "Interaction of Language Games in the Articulation of "Historical Memory" Within French and Uzbek Phraseology." *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769) 2.1 (2024): 348-354.
4. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and J. A. Yakubov. "Archaic Phraseological Units as Windows into "Historical Memory" in French and Uzbek Linguistic Traditions." *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157) 2.1 (2024): 163-169.
5. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and Yaxshiboyeva Nodira Ergashovna. "Contemporary Usage of Archaic Phraseological Units Expressing "Historical Memory" In Uzbek and French Languages." *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769) 2.2 (2024): 371-377.
6. Ilhomovna, Djafarova Dildora. "Phraseological Units Expressing" Memory"/" Mémoire" in Linguistics and their Analysis through Texts." *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development* 2.11 (2023): 490-492.

7. Яхшибоева, Нодира. "Таржима жараёнида маданиятлараро мулоқотнинг социолингвистик хусусиятлари." Академические исследования в современной науке 2.17 (2023): 165-169.
8. Иногамова, Ф. М., and Н. Э. Яхшибоева. "Фразеологик маънонинг конвенциаллиги." Academic research in educational sciences 3.5 (2022): 1176-1182.
9. Яхшибоева, Н. (2023). Туристический дискурс как один из особых видов институционального дискурса. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(6), 879-884.
10. Яхшибоева, Нодира. "The role of tourism terminology in french." O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023,[1/4] (2023).
11. Sadullaeva N., Sapaeva D. Analysis of Eponyms in the Terminology of Dermatovenerology //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – С. 452-459.
12. Sadullaeva, N., & Bakhtiyorova, M. (2021). Reflection of Onomastic Principles in Naming. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 3001-3007.
13. Sadullaeva N., Burieva U. The Peculiarities of Incomplete Sentences in Modern English //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – С. 3008-3020.
14. Sadullaeva S., Arustamyan Y., Sadullaeva N. Shifting the assessment paradigm from knowledge to skills: Implementation of new appraisal procedures in EFL classes in Uzbekistan //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering. – 2019. – Т. 9. – №. 1. – С. 4943-4952.
15. Arustamyan, Y., Siddikova, Y., Sadullaeva, N., Solieva, M., & Khasanova, N. (2020). Assessment of Educational Process and its Organization. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(S1), 573-578.
16. Nilufar S., Elvira A. GENDER SPECIFICITY OF PEDAGOGICAL DISCOURSE //INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. – 2023. – Т. 3. – №. 08.05. – С. 187-190.
17. Gulnoza K., Sadullaeva N. LINGUISTIC FEATURES OF GLUTTONIC DISCOURSE.
18. Djafarova, Dildora, Yaxshiboyeva Nodira, and Abdullayeva Zulfiya. "Socio-Cultural Memory and Its Reflection in French Phraseology." Journal of Positive School Psychology (2022): 2883-2889.
19. Yaxshiboyeva, Nodira. "Reconstruction of coloristic expressions in erkin azam's" noise" and" pakana's love"." Конференции. 2021.
20. Ilhomovna, Djafarova Dildora, and Bobokalonov Odilshoh Ostonovich. "Interaction of Language Games in the Articulation of “Historical Memory” Within French and Uzbek Phraseology." American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769) 2.1 (2024): 348-354.
21. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and J. A. Yakubov. "Archaic Phraseological Units as Windows into “Historical Memory” in French and Uzbek Linguistic Traditions." American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157) 2.1 (2024): 163-169